

## O‘TKAN KUNLAR ROMANI HAQIDA

*JDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

*Bahriddinova Nigora*

Abdulla Qodiriy, bu ulug‘ zotning nomini tilga olganimizda har bir adabiyotchining yuragida allaqanday hissiyotlari qo‘zg‘alib junbushga keladi. Naqadar buyuk zot ekanki bu inson,u yaratgan qahramonlar u yaratgan hissiyotlar asrlar osha zamonlar osha barhayot yashamoqda. Qodiriyning jisman mavh etilganiga ellik olti yil bo‘libdi. O‘shanda Abdulla Qodiriy qirq to‘rt yoshda edilar "O‘tkan kunlar "romanining yozilganiga esa yetmish yil bo‘ldi .Yozuvchi bilan birga asarga ham kishan urdilar.

Asarni ham o‘limga mahkum etdilar .Haq yo‘lidagi asarni hech qanday hukmdor hech bir zamonda mahv etolgan emas .Abdulla Qodiriy ham,u zotning asarlari ham tirik qolaveradi \_deydi yozuvchi Tohir Malik.Mening maqsadim Abdulla Qodiriyning shoh asari bo‘lmish "O‘tkan kunlar" haqida bir ikki og‘iz so‘z aytish edi .Bu muhtasham asar yozilibdiki o‘z muhlislari qalbining to‘ridan joy oldi .

Go‘zal muhabbat buyuk hurmat cheksiz sadoqat suvi ila sug‘orilgan g‘oyalar bilan yoritilgan asarda tilga olingan qahramonlar taqdiri nihoyatda chigal va murakkabdir. "O‘tkan kunlar"haqida balki yuzlab maqolalar yozilgandir . Tanqid qilingan tahlil qilingan, ayrimlari esa yuksak saviyaliligi bilan maqtovlarga erishgan.Abdulla qodiriy bunday asarlari bilan o‘z ijod maktabini yaratdi .

Biz bu asardan olgan taassurotlarimiz negizida ko‘plab yozma ishlar insholar yozganmiz ,bizning ukalarimiz,singillarimizham shu mavzular yoritilgan yozma ishlar ustida ishlab kelmoqdalar. Bu romanning poydevori Otabek va

Kumushning sof va buyuk muhabbatidir. Men ularning muhabbatini buyuk tog'lardagi ulkan aysberglarga o'xshataman. Ular hech qachon erimaydi, hech qachon ularga putur yetmaydi. Ularning cheksiz muhabbati ham shunday unga hech qanday putur yetmaydi .shunday asar bizning adabiyotimiz tarixini bezaganidan biz faxrlanamiz albatta. Bunday asarlar ko'payaversin adabiyotimiz san'atimiz yuksaklarga parvoz etaversin